



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 05 | pp. 131-137 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA INVESTITSİYALARNI SAMARALI BOSHQARISH AHAMIYATI VA UNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI



Abdusalomova Nodira Baxodirovna

TDIU, "Buxgalteriya hisobi"

kafedrası mudiri, i.f.d., professor

E-mail: n.abdusalomova@tsue.uz

Jabborova Sevinch Xusanovna

TDIU, Menejment fakulteti, 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishlab chiqarish korxonalarida samarali va unumli mehnat jarayonlarini tashkil etishda to'g'ri yo'naltirilgan investitsiya mablag'larini ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, jalb qilingan investitsiyalarni amaliyotga joriy etishda ichki va tashqi ta'sir etuvchi omillarni hisobga olish asos sifatida ko'rilgan va shunga doir xulosa va takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Investitsiya, ishlab chiqarish korxonalari, to'gridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, malakali xodimlar, texnologik ko'nikma, iqtisodiy tahlili, investitsion samaradorlik, mehnat jarayoni.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение правильно направленных инвестиционных средств для организации эффективных и продуктивных трудовых процессов на производственных предприятиях. Также внимание уделено внутренним и внешним факторам, влияющим на внедрение привлечённых инвестиций в практику, на основе чего представлены соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова. Инвестиции, производственные предприятия, трудовые коллективы, квалифицированные сотрудники, технологические навыки, управленческий анализ, инвестиционная эффективность, трудовой процесс.

Abstract. This article examines the importance of properly directed investment funds in organizing efficient and productive labor processes at manufacturing enterprises. It also highlights the internal and external factors influencing the implementation of attracted investments in practice, based on which relevant conclusions and recommendations are provided.

Keywords. Investment, manufacturing enterprises, labor groups, qualified employees, technological skills, management analysis, investment efficiency, labor process.

Kirish

Globallashuvning hozirgi bosqichida dunyoning barcha rivojlanayotgan mamlakatlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari va innovatsion faoliyatida jalb qilinayotgan investitsiyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Investitsiyalarni samarali boshqarish mamlakat hududidagi iqtisodiy infratuzilmani yaxshilaydi, ishlab chiqarish sohalarini

modernizatsiya qilish, yangi texnologiya va innovatsiyalar uchun ijobiy muhit yaratishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish hajmini o'sishiga va mamlakat hududida yaratiladigan pirovard mahsulotlar soniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Jumladan to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari yordamida xorijiy valyutani kirib kelishi milliy valyuta barqarorligini ta'minlaydi, xususan, inflyatsiya darajasi keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni oldini oladi. Investitsiyalarni to'g'ri boshqarish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki korxonaning daromadlilik darajasini barqaror turishini ta'minlaydi. Agar investitsion portfel bo'yicha qabul qilinayotgan moliyaviy qarorlar aniq va samarali bo'lsa, ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar o'zlarini boshqa sohalarga nisbatan qaytim davrining tezligi va yuqori daromadliliigi bilan ancha yaxshi baholanadi.

Jahon bankining xabar berishiga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda (Indoneziya, Misr, Vyetnam, Qozog'iston va hk.) ishlab chiqarish korxonalari asosan ichki daromadlar yoki xorijiy investitsiyalar orqali yashab qoladi. Ayniqsa, inqiroz davrlarida, masalan, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz paytida, ishlab chiqarish sektori subyektlarining asosiy qismi davlat yordami va xususiy sarmoyalarga tayanib omon qolgan.

Har qanday iqtisodiy rivojlanish bosqichidan o'tayotgan mamlakat iqtisodiyoti qonun bilan himoyalashi va zarur shart-sharoitlarni huquqiy mustahkamlashi zarur. 2022-2026 yillar uchun mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida "... kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish"¹ vazifalari belgilab berildi. Bu shuni ko'rsatadiki, xorijdan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb qilish ichki investitsiyalardan ko'ra ahamiyatliroq ekanini yaqqol misoli va ularning salmog'i ham ancha yuqori baholangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Investitsiyalarni ishlab chiqarish korxonalarida samarali boshqaruviga doir ko'plab mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarining turlicha yondashuv va qarashlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'zining ilmiy asosiga ega. Masalan, xalqaro Nobel mukofoti lauretlari prof. Modigliani va Millerlar qarashlariga ko'ra investitsiyalarni samarali yo'naltirish ya'ni "investitsiyalarni tarqatish" ishlab chiqarish korxonalarini turli xil iqtisodiy inqirozlardan saqlaydi va bozor o'zgarishlarini kompaniyaga ta'sirini kamaytiradi.²

Micheal Porter fikricha, investitsiyalarni to'g'ri boshqarilishi raqobatchi kompaniyalar orasida strategik ustunlik beradi, bu esa korxonaning uzoq muddat bozorda mustahkam o'rin egallashini ta'minlaydi.

Avstriyalik iqtisodchi olim Schumpeterning "ijodiy buzilish" nazariyasi investitsiyalarni iqtisodiy o'sish manbai sifatida e'tirof etadi. Ularni samarali boshqarish ishlab chiqarish korxonalariga zamonaviy texnologiyalarni uzluksiz joriy etish va innovatsiyalarni doimiy ravishda amaliyotda qo'llash imkonini yaratadi.³

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, 26-maqсад.

² Modigliani, F., & Miller, M. H. (1958). The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment. American Economic Review, 48(3), 261-297.

³ Schumpeter, J. (1911). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.

Yuqoridagi fikrlarga mahalliy iqtisodchi professorlarimizdan N.Davronova va B.Karimov yangi texnologiyalarni joriy etish va shu bilan bir qatorda xodimlar malakasini oshirish va inson kapitaliga sarmoya kiritish muvaffaqiyatli boshqaruvni tashkil etadi deya ta'kidlashadi.

Yuqorida keltirilgan olimlarning nazariyalarida investitsiyalarni boshqarish ahamiyatini har xil yondashuvlar orqali tahlil qiladi, ammo ularning barchasi moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni asosiy tamoyil sifatida ko'radi. Optimal kapital taqsimoti investitsiya qarorlarining muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omil bo'lib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada investitsiyalarni samarali boshqarishga doir nazariy yondashuvlar va xorijiy mamlakatlar amaliyoti asos qilib keltirib o'tilgan va tadqiqot obyekti sifatida ishlab chiqarish korxonalari va ularning faoliyatlari tahlil qilingan. Mamlakatimiz hududidagi strategiyalardan foydalanib, qo'yilgan vazifalarga erishish usullar, investitsiya samaradorligini oshirish yo'llari va boshqaruv mexanizmlari ko'rib chiqilgan

Tahlil va natijalar

2022 yil Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqot mamlakatimiz hududidagi investitsiyalarni tahliliy holatini baholab beribgina qolmay, yurtimizning iqtisodiy ahvolidan kelib chiqib maxsus yo'l xaritasi shakllantirib berdi. Bu haqda Jahon bankining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Marko Mantovanelli "Jahon bankining yangi hisoboti manfaatdor davlat organlarining 2026-yilgacha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha yangi strategiyani ishlab chiqish, shuningdek, ularni mamlakatda saqlab qolish hamda tarmoqlar va hududlar kesimida kengroq taqsimlash bo'yicha istiqboldagi rejalar uchun mustahkam asos yaratadi. O'z navbatida, hisobotga kiritilgan ushbu strategiyani amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan "yo'l xaritasi" muhim tarmoqlarda iqtisodiy o'sishning yangi "drayverlarini" aniqlashga yordam beradi", — deb ta'kidladi.

Hisobot natijalari doirasida Jahon banki yurtimizdagi mavjud investitsion ahvolni yaxshilash hamda ishlab chiqarish korxonalariga yanada ko'proq investitsiyalarni jalb qilishga doir qator tavsiyalar berib o'tdi⁴:

✓ O'zbekistonda ayrim mahsulotlarni qadoqlash uchun zarur bo'lgan materiallar yetarli darajada ishlab chiqarilmaydi. Shu sababli, ularni chetdan import qilishga to'g'ri keladi, ammo yuqori bojlar qo'llanilganligi sababli mahsulot tannarxi tabiiy ravishda oshishiga olib keladi. Amaldagi boj siyosatini qayta ko'rib chiqilishi va yengillashtirilgan stavkalar qo'llanilishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar qadoqlash xarajatlarini kamaytiradi, mahsulotlarning bozorga chiqish narxi pasayadi va raqobatbardoshlik darajasi oshadi.


✓ O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ish va eksport qilish tizimida saqlash jarayonlari bilan bog'liq muammolar mavjudligi sababli jahon standart talablariga javob bermaydi. Sabzavot va mevalarni uzoq muddatlarda saqlash imkoniyatining yo'qligi, ularning eksport qilinganda arzon narxlarda sotilishiga sabab

⁴ Recommendations for a National FDI Strategy and Roadmap for Uzbekistan (2022) – 45p.

bo'lmoqda va ishlab chiqaruvchilarning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilish doirasini cheklamoqda. Bunda hukumatning yetkazib berish jarayonlaridagi mazkur to'siqlarni yengib o'tishda yengillashtirish choralari ko'rish zarurligini anglatadi.

✓ Jahon Savdo tashkilotiga a'zolik jarayonlarini tezlashtirish. O'zbekiston global savdo bozorlariga yetarlicha integratsiyalashmaganligi tufayli eksport va hamkorlik aloqalarida to'siqlar mavjud. Tashkilotga a'zolik eksportni rag'batlantiradi va mamlakat bozori ham jahon standartlariga mos tovarlar bilan to'yinadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlil doirasida ishlab chiqarish korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirishda hukumat tomonidan yaratib berilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar tahlil qilingan va shunga qaramay jarayonning keyingi bosqichi ya'ni kerakli moliyaviy aktivlar kirib kelgandan so'ng bo'ladigan jarayonlarning asosiy ahamiyati korxonalarining faoliyat doirasi va o'z-o'zini oqlash darajasiga bog'liq bo'ladi.



1-rasm. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (O'zbekiston)⁵

Statistik ko'rsatkichlarni tahlil qiladigan bo'lsak xalqaro bozor maydonida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning salmog'i – FDI (Foreign Direct Investment) ko'rsatkichi bilan baholanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi o'zgaruvchan dinamikaga ega bo'ldi (1-rasm). Grafikdan ko'rinib turibdiki, 2016 yildan 2017 yilgacha FDI hajmi nisbatan barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lib, 1.6 milliard dollardan 1.8 milliard dollarga oshgan. Biroq, 2018 yilda keskin pasayish kuzatilib, investitsiyalar hajmi 0.6 milliard dollarga tushgan.

2019 yilga kelib O'zbekiston investitsion muhiti sezilarli yaxshilangan, FDI hajmi 2.3 milliard dollarga yetib, keskin o'sish qayd etilgan, ammo

Biroq, 2023 yilda bu miqdor 2.16 milliard dollarga kamaygan. Bu o'z navbatida uzoq yillar uchun kiritilgan investitsiyalarni qaytim darajasi past bo'lganligi sababli kiritilishi mumkin bo'lgan kelgusidagi investitsiyalarni cheklaganining yaqqol isboti.

⁵

Jahon bankining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan yaratilgan.

(<https://data.worldbank.org/indicator/BX.KLT.DINV.CD.WD?end=2023&locations=UZ&start=1992&view=chart>)

Bundan ko'rinib turibdiki investitsiyalarni korxona faoliyatida qanday yo'naltirilishi va samarali taqsimlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt foyda olishga intiladi. Bunday sharoitda investitsiyalar korxona moliyaviy holatini yaxshilashi, texnologiyalarini mustahkamlashi va xodimlar malakasini oshirishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan tayyor moliyaviy resurs hisoblanadi. Ammo shunga qaramay, har qanday investorning yo'naltirilgan mablag'lari ortig'i bilan korxonadan olib chiqib ketish sharti bilan kiradi. Shu kabi faktorlarni hisobga oladigan bo'lsak, investitsiyalarni korxonaning kerakli tarmoq va bo'limiga kerakli nisbatda taqsimlanishi zarur. Zero, cheklangan davr bilan jalb qilingan barcha mablag'larni xodimlar malakasini hisobga olmasdan, asosiy e'tiborni faqat korxonaning umumiy ko'lamini modernizatsiya qilish, zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlash ishlab chiqarish quvvatini tubdan yaxshilab beradi degani emas. Bunda korxonaning rentabellik darajasi...

Mavjud shart-sharoit, malaka va ko'nikmadan kelib chiqib, to'g'ri moliyaviy qarorlar asosida yo'naltirilgan investitsiyalar kelgusida korxona uchun qiyin vaziyatlarni keltirib chiqarmaydi aksincha ishlab chiqarish quvvatini kengayishiga, mahsulotsifati yaxshilanishiga hamda tannarxining pasayishiga natijada raqobatchilik muhitida bozorning tebranish holatlarida omon qolish imkoniyatini oshiradi. Dunyoning ko'plab ishlab chiqarish sohasidagi bizneslari shu muammodan aziyat chekadi. Hatto hozirgi davr iqtisodiyotining markazi bo'lgan AQSH davlatining ishlab chiqarish sohasidagi 70% kompaniyalari yuqori texnologik ko'kinmaga ega bo'lgan malakali mutaxassislar yetishmasligidan aziyat chekadi.⁶

Xulosa.

Shuningdek ishlab chiqarish korxonalarida investitsiyalarni samarali boshqarish va to'g'ri qarorlar qabul qilish tadbirkorlik xo'jalik subyektlarini keyingi faoliyatlarini belgilab beradi. Moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish korxonaning investitsion jozibadorligini baholashning muhim sharti hisoblanadi. Shu sababli moliyaviy aktivlar harakatini doimiy nazorat qilish va daromadlilik ko'rsatkichlarini muntazam kuzatib borish muhim ahamiyatga ega. Bunda barcha moliyaviy operatsiyalarni tizimli ravishda kuzatish hamda kapital oqimlarini samarali boshqarish korxona rivojlanishining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, korxonada investitsion portfelni samarali boshqarishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

1. Jalb qilingan mablag'larni ma'lum bir bo'lim va tarmoqqa bog'liq bo'lib qolishini oldini olish ya'ni katta hajmdagi moliyaviy resursni korxonaning aynan bir muammosiga yo'naltirmaslik zarur. Bu o'z navbatida korxona uchun katta riskni keltirib chiqaradi, sababi katta mablag' katta risk demakdir. Shu bilan birga notekis taqsimlangan kapital ichki infratuzilmani buzilishiga va mexanizmni ishdan chiqishiga olib keladi. Darhaqiqat, bir bo'lim so'ngi texnologik innovatsiyalar bilan ta'minlanishi qolgan bo'limlarning an'anaviy jihozlardan foydalanishi ishlab chiqarish jarayonlari orasidagi integratsiyalashuvni sekinlashtiradi va ayrim hollarda ma'lumotlar almashinuvini cheklaydi. Mablag'larni kerakli nisbatlarda diversifikatsiya qilish esa resurslardan optimal

⁶ <https://www.mckinsey.com/capabilities/people-and-organizational-performance/our-insights/tradespeople-wanted-the-need-for-critical-trade-skills-in-the-us>

foydalanish, risklarni minimallashtirish va korxonaning barqaror o'sishini ta'minlash uchun muhim strategik yondashuv hisoblanadi.

2. Har qanday ishlab chiqaruvchi korxonada mehnat jamoalari, xodimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Jalb qilinayotgan investitsiyalar sarfi malakali subyektlarsiz bo'lmaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, korxonaning texnik quvvati uning ishlab chiqarish quvvati degani emas. Kompaniyaga kirib kelayotgan investitsiyalarni samarali foydalanish o'z-o'zidan ular ustida samarali boshqaruvni tashkil etishni taqazo etadi. Shu asnoda, zamonaviy murakkab texnologiyalarni to'laqonli barcha funksiyalaridan foydalana oladigan kadrlar tizimini yaratish korxona istiqbolini belgilab beradi. So'nggi texnologiyalar bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori bo'lishidan ko'ra, avval mavjud resurslarning barcha funksiyalaridan foydalanish uchun xodimlar malakasini oshirish korxona xarajatlarini bir necha baravarga kamaytiradi hamda foydani maksimallashtirishga ko'maklashadi.

3. Investitsiyalarning aslini olganda iqtisodiy mohiyati kiritilgan mablag'dan ko'proq mablag' bo'lib chiqib ketishdan iborat. Ammo shu jarayonda kompaniyalarning asosiy maqsadi esa berilgan qaysidir ma'nodagi imtiyozdan vaqt mobaynida foydalanib qolishi zarur. Shu davr mobaynida investitsion portfeldan samarali foydalanish va bozor talablariga kompleks yondashish orqali to'g'ri qarorlar qabul qilgan korxonalar daromadlari sezilarli darajada ortishi va kelgusida investitsion jozibadorligi investorlar tomonidan yuqori baholanishiga olib keladi. Jarayonning muhim sharti sifatida korxona uchun foydali deb topilgan har qanday moliyaviy qarorlarning asosini iqtisodiy prognozlar va tahliliy ko'rsatkichlar, bozorning o'rganilganlik darajasi bo'lishi zarur. Investitsion qarorlarni faqat korxonaning ichki omillaridan kelib chiqib qabul qilish mahsulot ishlab chiqarish jarayonida samarali ko'rinishi mumkin, ammo uzoq muddatda bozor sharoitlariga moslashuvchanlikni pasaytirishi ehtimoli yuqori. Mahsulotni bozorga chiqarganda raqobatchilar, talab o'zgarishlari, texnologik taraqqiyot va tartibga solish siyosati kabi tashqi omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, investitsion strategiyalarni shakllantirishda nafaqat ichki imkoniyatlarni, balki tashqi iqtisodiy muhitni chuqur tahlil qilish zarur. Bozor tendensiyalarini o'rganish, iste'molchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish va raqobat ustunliklarini shakllantirish orqali investitsiyalarning samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, 26-maqсад.
2. Modigliani, F., & Miller, M. H. (1958). The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment. American Economic Review, 48(3), 261–297.
3. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/968621468044333596/pdf/731220NWPOFull0C0disclosed010090120.pdf>
4. <https://www.mckinsey.com/capabilities/people-and-organizational-performance/our-insights/tradespeople-wanted-the-need-for-critical-trade-skills-in-the-us>

5. <https://data.worldbank.org/indicator/BX.KLT.DINV.CD.WD?end=2023&locations=UZ&start=1992&view=chart>
6. Schumpeter, J. (1911). *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.
7. Porter, M. E. (1996). "What is Strategy?" *Harvard Business Review*, 74(6), 61–78.
8. Recommendations for a National FDI Strategy and Roadmap for Uzbekistan (2022) – 45p
9. www.stat.uz – Official website of Uzbekistan Republic State Committee of Statistics.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

